FARG'ONA VILOYATI FURQAT TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 27 - dekabr 387-11-164-Q/22 Furqat tuman hokimligi

Uy va turar joyning inventar yig'majildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko'chirmalar va nusxalar berish tartibi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Davlat kadastrlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-yanvardagi 18-sonli "O'zbekiston Respublikasining uy-joy fondini davlat yo'li bilan hisobga olish to'g'risida"gi qarorining 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan Nizomning 12-bandiga, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Uy va turar joyning inventar yig'majildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko'chirmalar va nusxalar berish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Farg'ona viloyati boshqarmasi Furqat tuman filiali (K.Tusmatov) ushbu qaror bilan tasdiqlangan "Uy va turar joyning inventar yig'ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko'chirmalar va nusxalar berish tartibi" asosida ish yuritilishini ta'minlasin.

3.Ushbu qaror "Navbahor" gazetasida rasman e'lon qilinsin hamda 3 kunlik muddatda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4.Mazkur qaror matbuotda e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining o'rinbosari R.Xamdamov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **J.Jumanov**

Furqat tuman hokimining
2022 yil 27 dekabrdagi
387-11-164-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish

TARTIBI

1. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildi uy yoki turar joy foydalanishga qabul qilinib olinayotganda yoxud turar joy uy-joy fondiga kiritilayotganda tuziladi.

Keyingi texnik hisobga olish uylar va turar joylarni vaqti-vaqti bilan rejali xatlashlar o‘tkazish yo‘li bilan besh yilda kamida bir marta, shuningdek rejadan tashqari tekshirishlar jarayonida hisobga olish ko‘rsatkichlari o‘zgarishlari aniqlanishiga qarab amalga oshiriladi.

2. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar mustaqil hujjatlarni tashkil etadi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-yanvardagi 18-son Qarori 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida uy-joy fondini davlat yo‘li bilan hisobga olishning yagona tizimi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan Uy-joy fondi insonning yashashi uchun yaroqli bo‘lgan turar joylar, shu jumladan, uylar, kvartiralar, xizmat turar joylari, maxsus uylar (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironligi bo‘lgan shaxslar, faxriylar, yolg‘iz keksalar internat-uylari, shuningdek, bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadlar uchun mo‘ljallangan uylar) dan iborat bo‘lgan fond.

4. Uy-joy fondini hisobga olish texnik hujjatlar yig‘ma jildi, ro‘yxatdan o‘tkazish daftarlari, inventar hujjatlar yig‘ma jildida shakllangan ro‘yxatdan o‘tkazilgan hujjatlarning nusxalari, boshqa inventarizatsiya hujjatlari Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi Uchko‘prik tuman filiali arxivida saqlanadi.

5. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish uchun yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning ishonchli vakillari Davlat kadastrlari palatasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi Furqat tuman filialiga ariza bilan murojaat qiladi.

6. Arizalar Davlat kadastrlari palatasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi Furqat

tuman filiali tomonidan qabul qilib olinadi va shu kunning o‘zida arizalar reestriga qayd qilinadi.

7. Yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning ishonchli vakillari uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi Furqat tuman filialiga telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat ko‘rinishida ariza berishlari mumkin.

Ushbu nusxalardan iborat kadastr yig‘ma jildining har bir varog‘iga Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi Furqat tuman filiali rahbari tomonidan asliga to‘g‘ri degan yozuv kiritiladi va imzolanadi hamda ariza kelib tushgan kundan boshlab ikki ish kun ichida huquq egasiga topshiriladi.